



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-aprel

№ 2011

9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi PF-6127-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari, O‘zbekiston Sudyalari assotsiatsiyasi Markaziy kengashi va Faxriylar jamoatchilik boshqaruvi kengashining 2025-yil 17 martdagi 1-son qo‘shma majlisi qarori hamda Sudyalar oliy kengashining 2025 yil 25 apreldagi xulosasiga asosan:

1. Sud tizimida yuksak obro‘-e‘tibor qozongan, jamiyatda odil sudlovga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va yosh sudya kadrlarni yetishtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan quyidagi shaxslar “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlansin:

Uralov Abdimajit;
Namozov Xayrullo G‘aniyevich;
Jurayev Mustafo Muxammedovich
Kamilov Kozimdjan Fazilovich;
Meliyev Olimdjon Abdullayevich;
Eshonqulov Sayyor Yusuf o‘g‘li;
Miralimov Mirsamat Mirdjalyalovich;
Yermanov Ilyas Saribayevich;
Kamilova Gulnoza Melsovna.

2. “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganlarga ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash Sudyalar oliy kengashi kotibi X.Sadikov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov